

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ECONOMIC
Business | Finance | Investment

UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'aforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memolarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxonada faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit institutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar	144
Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
Даденова Гульхан Кенесбаевна	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы	156
Абдурахманова М.Т.	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish.....	162
Ahunova Tamannoxon Zokir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli	167
Tojialiyeв Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili	171
O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari	176
Uralov Temur Boxodir O'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi	181
Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari	185
Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	197
Tursunov To'fqin Jo'raqulovich	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане	202
Юсупов Мансур Расулович	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashtirish usullari	207
Hamroyev Anvar Ashurovich	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati	214
Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
Nurmurodov Olmos Eshmuradovich	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish	226
Uzaqova Gulmira Yuldashovna	



Korxonalar mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida) 230
Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li

Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlari 238
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li



GAZ SANOATIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING MOLIYAVIY JIHATLARI

Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li

Mustaqil izlanuvchi (PhD)

Elektron pochta: emukhubbek@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada gaz sanoatida xorijiy investitsiyalarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri O'zbekiston Respublikasi va Rossiya tajribasi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda xorijiy sarmoyaning gaz sanoatini moliyalashtirish, tarmoq infratuzilmasini modernizatsiya qilish, davlat budjetiga ta'siri hamda investitsion xavf-xatarlar kontekstida baholanishi yoritilgan. "Gazprom" OAJ va "Hududgazta'minot" AJ korxonalari faoliyati moliyaviy ko'rsatkichlar asosida taqqoslab tahlil etilgan. Tahlillar asosida gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda huquqiy kafolatlar, moliyaviy boshqaruv va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan. Maqola natijalari moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya, milliy iqtisodiyot, gaz sanoati, ilg'or texnologiyalar, qayta ishlash, infratuzilma, energiya resurslari, sarmoyalar, milliy resurslar.

Abstract: This article analyzes the impact of foreign investments on financial stability in the gas industry, using the experience of the Republic of Uzbekistan and Russia as examples. The study examines the role of foreign capital in financing the gas sector, modernizing industry infrastructure, its influence on the state budget, and assessing investment risks. The activities of Gazprom OJSC and Hududgazta'minot JSC are comparatively analyzed based on financial indicators. The analysis substantiates the importance of legal guarantees, financial management, and public-private partnership mechanisms in attracting foreign investment into the gas sector. The results of the article serve to develop practical recommendations aimed at ensuring financial stability.

Keywords: investment, national economy, gas industry, advanced technologies, processing, infrastructure, energy resources, capital inflows, national resources.

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние иностранных инвестиций на финансовую устойчивость газовой отрасли на примере Республики Узбекистан и России. В исследовании освещены вопросы финансирования газовой промышленности за счет иностранных капиталовложений, модернизации отраслевой инфраструктуры, влияния на государственный бюджет, а также оценки инвестиционных рисков. Деятельность ОАО «Газпром» и АО «Hududgazta'minot» сравнительно проанализирована на основе финансовых показателей. На основе анализа обоснована важность правовых гарантий, финансового менеджмента и механизмов государственно-частного партнерства при привлечении иностранных инвестиций в газовую отрасль. Результаты статьи служат основой для разработки практических предложений, направленных на обеспечение финансовой устойчивости.

Ключевые слова: инвестиции, национальная экономика, газовая отрасль, передовые технологии, переработка, инфраструктура, энергетические ресурсы, капиталовложения, национальные ресурсы.

KIRISH

Investitsiyalar barcha davlatlar milliy iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, gaz sanoatida bu holat yanada dolzarb tus olmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas. Xorijiy sarmoyalar milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, xususan energiya resurslari sektorida samarali faoliyat yuritish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Gaz sanoatiga xorijiy kapital jalb etil-



ishi nafaqat moliyaviy resurslar oqimini ta'minlaydi, balki ilg'or texnologiyalarning kirib kelishi, ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasi, ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi va tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq xorijiy investitsiyalarning faqat ijobiy emas, balki salbiy tomonlari ham mavjud. Jumladan, ichki bozorning haddan tashqari tashqi kapitalga qaram bo'lib qolishi, milliy resurslar ustidan nazoratning zaiflashuvi, siyosiy yoki iqtisodiy bosimlar ehtimoli kabi omillar ehtiyotkorlik bilan baholanishi lozim. Shunday bo'lsa-da, investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, ayniqsa energetika, shu jumladan gaz sanoati tarmoqlarida ularning ahamiyati beqiyosdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va bu sarmoyaning tarmoqdagi moliyaviy barqarorlikka ta'siri ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Ushbu adabiyotlar tahlili gaz sanoati infratuzilmasi, investitsiyaviy xavflar, rentabellik va davlat siyosatining roli kabi jihatlarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotchilar qatorida P. Krugman va M. Obstfeld (2009) xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvning eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rib, transchegaraviy kapital harakati va investitsiya oqimlarining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini yoritgan. Xuddi shuningdek, J. H. Dunning (1981) tomonidan ilgari surilgan "OLI" paradigmasida (egallik, joylashuv va ichkilashtirish) xorijiy investitsiyalar oqimining strategik sabablarini tahlil qilish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning gaz sanoati orqali milliy iqtisodiyotga ta'siri, ular yordamida moliyaviy barqarorlikka erishish omillari hamda O'zbekiston va Rossiya tajribasidagi o'xshashlik va farqlar iqtisodiy-moliyaviy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Gaz tarmog'ining investitsiyaviy jozibadorligi, moliyalashtirish manbalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning natijalari ilmiy asoslangan tarzda yoritilgan. Tadqiqot natijalari xorijiy sarmoyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalar oqimini jalb qilish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyoti, xususan gaz sanoati ham bu jarayonlardan mustasno emas. Xorijiy investitsiyalar quyidagi yo'nalishlarda sektor rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- ilg'or texnologiyalar va boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- mahalliy kadrlar malakasini oshirish;
- yangi ish o'rinlarini yaratish;
- xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni tashkil etish;
- mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish.

Gaz sanoatida xorijiy sarmoyadorlarning ishtiroki, ayniqsa, kon qazib olish, gazni qayta ishlash, transport va infratuzilma loyihalarida sezilarli bo'lib, O'zbekistonning "Hududgazta'minot" AJ va "O'ztransgaz" AJ kabi yirik korxonalar ham bu yo'nalishda qator xalqaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirmoqda.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynovchi omillar mamlakatdagi umumiy makroiqtisodiy barqarorlik, erkin valyuta ayirboshlash siyosati, soliqqa tortish tizimining ochiqligi va soddaligi, moliyaviy sektor rivoji hamda bank tizimining raqobatbardoshligidan iboratdir[1].

O'zbekiston Hukumati tomonidan so'nggi yillarda xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan tartiblar, soliq imtiyozlari, "yagona darcha" tizimi va davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari joriy etilmoqda. Biroq ularning amaliy samarasini kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur (1-rasm):



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosida loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari

Rossiya gaz sanoatining eksportga yo'naltirilganligi unga yirik hajmdagi xorijiy valyuta tushumlarini ta'minlab, investitsiyalarning qaytaruvchanligini yuqori darajada kafolatlaydi. O'zbekistonda esa gazdan foydalanish asosan ichki ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, investitsiyalarning rentabelligi nisbatan past. Bu esa xorijiy investorlar uchun xavf omili hisoblanadi. "Gazprom" OAJ Rossiya byudjetiga yiliga 2–3 trillion rubl atrofida soliq to'laydi, tashqi savdo balansining ijobiy shakllanishiga va rubl kursining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U Rossiyada energetik geosiyosatning markazida turadi.

O'zbekistonda esa "Hududgazta'minot" AJning moliyaviy ta'siri nisbatan cheklangan: asosiy yo'nalish ichki gaz ta'minoti, aholiga subsidiyalangan narxlarda gaz yetkazib berish va infratuzilmani saqlab turish hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'p hollarda davlat subsidiyalari va investitsiyalariga bog'liq. Rossiya gaz sanoati global siyosiy bosimlarga (sanksiyalar, narx siyosati) qarshi turgan holda faoliyat yuritmoqda. Bu holat investitsiyaviy xavflarni oshirsa-da, uzoq muddatli kontraktlar, LNG bozoriga chiqish va Xitoy bilan yirik shartnomalar orqali barqarorlikni saqlab qolmoqda.

O'zbekistonda esa siyosiy barqarorlik, energetika sohasidagi islohotlar, raqamlashtirish jarayonlari va qator xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik investitsion muhitning yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Biroq iqtisodiy samaradorlik pastligi va tarif siyosatining notijoratligi moliyaviy mustaqillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Taqqosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Rossiya gaz sanoatining tabiiy monopoliyalari investitsiya jalb qilishda keng imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, ular global siyosiy xavf ostida faoliyat yuritadi. O'zbekiston gaz sanoati esa ichki ehtiyojlarga yo'naltirilganligi sababli cheklangan rentabellik va yuqori subsidiya darajasi bilan tavsiflanadi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qat'iy iqtisodiy islohotlar, narxlar siyosatining liberallashtirish va tarmoqdagi boshqaruv sifatining oshirilishini talab etadi.

So'nggi yillarda Rossiya iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimi barqaror emasligi bilan ajralib turmoqda. Bu holat asosan xalqaro iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, jumladan sanksiyalar, geosiyosiy tangliklar va investorlar uchun xavf darajasining oshishi bilan izohlanadi. Investitsiya muhiti noaniqligi, kapital harakati ustidan chek-



lovlar hamda moliyaviy bozorlarning ishonchligi bilan bog'liq muammolar xorijiy investorlar uchun salbiy signal bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan taqdim etilgan tahlillarda ham Rossiyaga investitsiya jalb qilish ko'rsatkichlari so'nggi yillarda sezilarli darajada pasaygani qayd etilgan. Masalan, 2023-yilda Rossiyaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019-yilga nisbatan qariyb 40 foizga kamaygan[2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, gaz sanoatining jadal rivojlanishi xorijiy investitsiyalarni oqilona va izchil jalb etish bilan bevosita bog'liq. Bu esa strategik rejalashtirish, huquqiy kafolatlar, hamkorlik mexanizmlari va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta'minlay oladigan davlat siyosatini talab etadi. Rossiya Federatsiyasining bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida tabiiy monopoliyalarning barqaror faoliyati va samarali rivojlanishi milliy iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynamoqda.

Xususan, "Gazprom" OAJ, "Rossiya YEES" RAO va MPS (temir yo'l tizimi) kabi yirik korporatsiyalar mamlakat iqtisodiyotining asosiy moliyaviy oqimlarini shakllantiruvchi va sanoat tarmoqlarini harakatga keltiruvchi strategik subyektlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Mazkur tabiiy monopoliyalar jamiyat daromadlarining katta qismini shakllantiradi va ularning faoliyati iqtisodiyotning ijtimoiy hamda makroiqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular nafaqat energetika va infratuzilma sohalarining bosh ishtirokchilari, balki aholining bandligi, real daromadlari va iste'mol salohiyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy monopoliyalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ularning investitsiya siyosatida ham aks etadi. Chunki bu turdagi korxonalar asosan kapitaltalab infratuzilma tarmoqlarida faoliyat yuritadi, uzoq muddatli investitsion loyihalarni amalga oshiradi va yuqori darajadagi texnologik modernizatsiyaga ehtiyoj sezadi. Shu bilan birga, ularning investitsiyaviy faoliyati ko'plab tashqi va ichki omillarga, jumladan davlat tomonidan narxlarning tartibga solinishi, budjet siyosati, kredit resurslariga bo'lgan kirish imkoniyatlari va xalqaro moliyaviy holatlarga bog'liqdir.

Shunday qilib, tabiiy monopoliyalarning investitsiyaviy faolligi nafaqat ularning o'z ichki rivoji uchun, balki butun milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

"Xorijiy investitsiyalar — bu bir mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakatdagi iqtisodiyot subyektlariga amalga oshiriladigan kapital qo'yilmalardir, ularning asosiy maqsadi uzoq muddatli manfaat ko'zlashdir" deb ta'rif berilgan[3].

Xorijiy investitsiyalar — bu bir mamlakatdagi kompaniya yoki shaxsning boshqa mamlakatdagi ishlab chiqarish vositalariga egalik qilishi yoki ularni nazorat qilish maqsadida amalga oshirgan kapital qo'yilmasidir[4].

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, energetik xavfsizlik masalalarining dolzarbligi hamda energiya resurslariga bo'lgan talabning ortib borishi sharoitida tabiiy monopoliyalarning iqtisodiy tizimdagi roli sezilarli darajada oshmoqda. Bu jarayonda Rossiya va O'zbekiston gaz sanoati tarmoqlari, ayniqsa yirik davlat nazoratidagi kompaniyalar faoliyati alohida e'tiborga loyiq.

Rossiyada "Gazprom" OAJ gaz qazib olish, tashish, qayta ishlash va eksportni yagona vertikal tizimda birlashtirgan yirik transmilliy kompaniya sifatida faoliyat yuritadi. Bu korxonada Rossiya Federatsiyasida energetika siyosatining asosiy instrumenti bo'lib xizmat qiladi va to'g'ridan-to'g'ri davlat manfaatlari bilan uyg'unlashgan holda boshqariladi. O'zbekistonda esa tabiiy gaz tarmog'ining bosh operatori — "Hududgazta'minot" AJ, asosan iste'molchilarga gaz yetkazib berish, gazni hisobga olish tizimini tashkil etish va ichki bozorni ta'minlashga ixtisoslashgan. Boshqa asosiy korxonada — "O'ztransgaz" AJ esa gazni magistral quvurlar orqali transport qilishni amalga oshiradi. Bu tashkilotlar faoliyati yo'nalishlar bo'yicha bo'lingan bo'lib, yagona vertikal integratsiyadan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов К.Х., 2022 Инвестицион муҳит ва капитал ҳаракати. Тошкент: иқтисодиёт фанлари нашриёти;
2. World Bank. (2023). Foreign Investment Trends and Risks in Eastern Europe and Central Asia. Jahon bankining rasmiy bazasi.
3. International Monetary Fund (IMF). (1993). Balance of Payments Manual (5th edition). Washington, D.C.: IMF Publishing.
4. Krugman, P., & Obstfeld, M. (2009). International Economics: Theory and Policy. Pearson Education.
5. Xudoyberganov, Q.X. (2018). Investitsiyalar iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. Odilov, S., & Mamadaliyev, I. (2021). Tabiiy gaz resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №3, 45–51.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100